



Times Higher Education
Impact Rankings



QS

WORLD
UNIVERSITY
RANKINGS
ASIA 2025



Green
Metric
World University Rankings



BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI
1930

“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”

mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

II

**9-10-sentabr
2025-yil**

Buxoro - 2025

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, Buxoroning tarixiy manzillaridan bo'lgan janubiy tumanlar o'ziga xos boy tarixga ega. Bu tarix mazkur hududlardagi toponimlarda o'zini namoyon etib turadi. Ularni asrab-avaylash, kelajak avlodlar yetkazish barchaning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 55.
2. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976. – С. 176-177.
3. Kilichev B.E. Buxoro viloyati toponimlarining lingvistik tadqiqi: Filol. fanl. dokt. (DSc)... disser. – Buxoro, 2024. – B. 174.
4. Нафасов Т. Қашқадарё кишлоқномаси. – Т.: Муҳаррир, 2009. – Б.46.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдли, 2-жилд. – М.: “Рус тили”, 1981. – Б.331.
6. **O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. – T., 2024. – B.206.**
7. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б. 50.
8. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B.185.
9. Хофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома. 1-китоб. – Тошкент: Шарк, 1999. – Б. 46.

DUNYO SIVILISATSIYASIDA BUXORONING O'RNI: ZARGARLIK VA ZARDO'ZLIK (o'zbek va fransuz terminlari chog'ishtirma tahlili misolida)

Hojiyeva Gulchehra Salimovna

*Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqola Buxoro hunarmandchiligining dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'rni, xususan, «zargarlik» va «zardo'zlik»ning rivojlanish tarixi, mazkur san'at turlariga oid terminlarning fransuz tilidagi ekvivalentlari bilan lingvokulturologik xususiyatlariga ko'ra chog'ishtirma tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar. Numijkat, hunarmandchilik, zargarlik, zardo'zlik, mahalliy va ananaviy uslub, *l'orfèvrerie, la joaillerie, le filigrane, Opus Anglicanum, Or Nué, la broderie d'or, un brodeur.*

Tarixdan ma'lumki, Buxoro jahonning eng qadimiy va tarixiy-memoriy obidalarga boy go'zal shaharlaridan biridir. Buxoro nomi dastlab X asrda tarixchi Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» asarida rasman zikr etilgan bo'lsa-da, uni eramizdan avvalgi davrlarda bunyodga kelib, o'z o'rnida doimiy rivojlanib kelayotgan dunyodagi sanoqli shaharlar qatorida ta'kidlash o'rinlidir. Ko'plab tarixchilar va tilshunoslar fikricha, Buxoro so'zi qadimgi hind – sanskrit tilidagi «vixara» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «qal'a» ma'nosini anglatadi. Qadimda shahar «Numijkat» va «Faxira» deb ham atalgan.[6]

Buxoro qadimdan nafaqat ilm-fan, balki milliy hunarmandchilikda ham o'ziga xos maskan bo'lib kelgan. Jumladan, shaharda zargarlik bezaklarini ishlab chiqarish hunarmandchilikning alohida tarmog'ini tashkil etib, bugungi Buxoro vohasi hududlaridan topilgan dastlabki zargarlik bezaklari bronza davriga (miloddan avvalgi II ming yillik – I ming yillik boshlariga) mansubligi fikrimizni asoslaydi. Zargarlik san'atining gullab-yashnagani bois, XVI asrda shaharning markaziy bozorida zargarlarga «Toqi zargaron» (zargarlar gumbazi) deb nomlangan maxsus joy ajratilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoroda zargarlik san'ati ravnaq topgan bo'lib, saroy ustaxonalarida ustalar, asosan, oltindan turli buyumlar yasaganlar. Ta'kidlash lozimki, qadimdan oltin quyoshning va erkaklar jasurligining sehrli kuchi, kumush esa ayollik ibtidosining timsoli bo'lgan.[7]

«Zargarlik» san'atini tilshunoslik nuqtai-nazaridan tadqiq etganda, «zargar» termini forsha tilla buyum yasovchi ma'nosini, «zargarlik» esa zargar hunarini egallaganlik; qimmatbaho metallar va toshlardan bezaklar yasash hamda oltin, kumush kabi turli qimmatbaho tosh va metallardan zeb-ziynat buyumlari va taqinchoqlar yasaydigan usta-hunarmand kasbi [1]ni anglatishini aytish mumkin. Mazkur termin fransuz tilida «orfèvre» atamasiga ekvivalent bo'lib, u eski fransuz tilidan kelib chiqqan *or* – oltin va *fèvre* – hunarmand so'zlaridan yasalgan. [4]Ushbu ikkala terminning leksik-semantik xususiyatlari quyidagi misolda o'z ifodasini topadi:

1-misol. *Zargar* 1. orfèvre;

2. orfèvre-joaillier;

3. orfèvre-bijoutier;

4. bijoutier, ière;

5. diamantaire;
6. metteur en oeuvre;
7. joaillier, ière;
8. lapidaire[3].

Yuqoridagi misoldan ko‘rinadiki, «zargar» atamasining fransuz tilidagi tarjimalari nafaqat so‘z, balki, juft so‘z va so‘z birikmalari asosida ham yasalgan bo‘lib, umumiy ma’noda o‘zaro sinonimiya hosil qiladi. Ushbu misollar ichida «orfèvre» termini dominantlik xususiyatiga ega.

«Zargarlik» hunari juda qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, Misr, Yunoniston, Eron va Xitoy hamda O‘zbekiston hududidagi Dalvarzintepadan topilgan miloddan avvalgi I asrga oid ushbu hunar bilan bog‘liq arxeologik topilmalar bundan dalolat beradi. Zargarlikda asosan, ayollar zeb-ziynatlari tayyorlash texnologiyalari vositasida bosh, chakka, peshana, bo‘yin, quloq, ko‘krakka mo‘ljallangan tillaqosh, gardon, takiya-tuzi, mohi tilla, sirg‘a, toj, bodomoy, silsila, sochpopuk, tillo-targak, tosaukele, shokila, gajak, qo‘sh-dou, butun-tirnoq, yarim-tirnoq, zirk, xalqa, gulband, tepish-i-dil, nozir-gardon, bezzak-qubba, bo‘yin-tumor, ko‘krak-tumor, amuletlar (qo‘ltiq-tumor), bilak-uzuk va uzuk singari yuzlab turdagi taqinchoqlar tayyorlangan. [2]



1-rasm

XX asrning boshlarida inqirozga yuz tutgan zargarlik san’ati mustaqillik yillarida qayta jonlanib, bugungi kun ustalari asosan ikki: unutib borilayotgan ananalarni qayta tiklayotgan *mahalliy* va zamonaviy uslubda irod qilayotgan *an’anaviy* yo‘nalishlarda faoliyat yuritmoqdalar. Shu jihatdan, yuqorida tilga olingan xususiyatlar bilan birga o‘zbek tilshunosligida ushbu termin yana bir qator ta’riflarga ham ega, jumladan:

- ✓ zargar hunarini egallaganlik;
- ✓ qimmatbaho metal va toshlardan bezaklar yasash;
- ✓ dekorativ-amaliy san’at turi;
- ✓ bozorda zargarlar joylashgan rasta, qator;
- ✓ zargarlar yashaydigan mahalla.[1]

«Zargarlik» termini izohlaridan uning ko‘p ma’noli so‘z ekanligi anglashiladi. Tilda mazkur terminning fransuz leksikasiga xos bo‘lgan quyidagi bir necha ma’nodoshlarini uchratish mumkin:

2-misol. *Orfèvrerie m.*

- 1) zargarlik;
- 2) zargarlik buyumlar [3];
- 3) san’at;
- 4) zargarlik buyumlari savdosi;
- 5) biror zargar tomonidan ishlangan buyumlar jamlanmasi[4].

Fransuz tilida «orfèvrerie» atamasi atrofida qurilgan quyidagi leksik birliklarni ham tilga olish o‘rinli:

- ✓ pièce d’orfèvrerie ouvragée – ishlov berilgan zargarlik buyumi;
- ✓ marque d’orfèvre – zargarining belgisi;
- ✓ orfèvrerie d’argent massif – kumushdan qilingan zargarlik buyumlari;
- ✓ ouvrage d’orfèvrerie – zargarlik buyumi.

Ushbu misollardan ko‘rinadiki, har ikkala tilga xos tushunchalar ba’zan so‘z, ba’zan so‘z birikmalari asosida ifodalanib kelmoqda.

3-misol. *Joaillerie f.* 1) zargarlik san’ati;

- 2) zargarlik mollari bilan savdo qilish;
- 3) zargarlik do‘koni;
- 4) zargarlik mollari.

4-misol. *Filigrane m.* – filigran, juda nafis ishlangan zargarlik buyumi.

Ushbu misollardan fransuz tilidagi «orfèvrerie», «joaillerie», «filigrane» terminlarining o‘zaro ma’nodoshlik asosida «zargarlik» atamasiga ekvivalent bo‘lib kelishini ko‘rish mumkin.

Buxoro hunarmandchiligiga oid yana bir san’at termini bo‘lgan «Zardo‘z» atamasi forscha «zar» – tilla, «do‘zi» – tikmoq ma’nosini anglatib, o‘z o‘rnida ko‘plab ta’riflarga ega:

- 1) zar tikuvchi;
- 2) kiyimga zardan gul tikuvchi;
- 3) naqsh soluvchi;



2-rasm

- 4) chevar;
- 5) zardan tikilgan buyum. []

Yuqoridagi misollardan «zardo‘z» terminining polisemantik xususiyatga ega ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tilda shuningdek, «zardo‘zi» va «zardo‘zchi» atamaları ham mavjud bo‘lib, tilshunoslikda mazkur til birliklari bitta sinonimik qatorni tashkil qiladi.

O‘zbek zardo‘zlari bezak sifatida *zardo‘zi zamindo‘zi*, *zardo‘zi guldo‘zi*, *birishimdo‘zi* (agar ipak ishlatilsa) va *pulakdo‘zi* (tugmasimon metall yaproqchalardan foydalanganda) singari bir necha usullarni qo‘llab, san‘at asarlarini yaratadilar. Shu o‘rinda tarixiy manbalarga nazar solinsa, arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar O‘rta Osiyo xalqlari orasida zardo‘zi kiyim va badiiy buyumlar tikish qadimdan rivojlanganligini ko‘rsatadi. Buning isboti sifatida *ispan elchisi de Klavixo* o‘z esdaliklarida zardo‘zlik usulida tikilgan ko‘rpa-to‘shaklar, ipak matoga zar taqilgan qimmatbaho darpardalar va chodirlar haqida, shuningdek, erkak va ayollarning zar ipda tikilgan kiyimlari haqida yozib qoldirganini keltirib o‘tish mumkin.

«Zardo‘zlik» termini chambarak, angishvona, qaychi va igna hamkorligida bajariladigan san‘at turi sifatida dastlab Sharqda paydo bo‘lgan bo‘lib, uni hunarmandchilik turi sifatida Buyuk Ipak yo‘li orqali qadimiy Xitoyga va u orqali Yevropaga yoyilgan san‘at turlaridan deyish mumkin. O‘rta asrlarda Angliya mamlakatida gullab yashnagan ushbu hunar turi «*Opus Anglicanum*» deb nomlandi. XV asrda Italiyada rivojlanishda davom etgan zardo‘zlik turi «*Or Nué*», ya‘ni, «Jimjimador bezatish» deb nomlandi.[3]

XVII-asrdan oltin iplar shunchalik nafis bo‘lganligidan, ularni matolardan o‘tkazish imkoniyati paydo bo‘lishi barobarida ananaviy tikuvchilikka yangi zardo‘zlik va kashtachilik usullari qo‘shilib, ayollar va erkaklar kiyimlarini bezatdi. Ammo fan-texnika rivojlanishi barobarida XIX-asrdan oltin kashtado‘zlik asta-sekin mashhurlikini yo‘qotdi. XX-asrga kelib, Fransiyada sof oltin o‘rniga oltin iplardan foydalanish tufayli, zardo‘zlik yangicha ko‘rinish oldi. Bugungi kunda zarbob liboslardan asosan san‘atkorlar o‘z chiqishlarida foydalanmoqda.[5]

O‘rta Osiyoda zardo‘zlik XV-XVIII asrlarda yuksak

darajaga ko‘tarilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mazkur san‘at turi asosan, Buxoroda saqlanib qoladi va keng tarqaladi, bunda chopon, to‘n, do‘ppi, peshonaband, belbog‘, qiyiqcha, nimcha kabi o‘zbek ananaviy liboslari, hamda chimildiq, joynamoz, taxmonpo‘sh, zinpo‘sh, dayri, yo‘lpo‘sh va turli maishiy buyumlar tayyorlangan. Dastlab, ushbu hunar bilan erkaklar, so‘ngra ayollar shug‘ullanganlar.[5] Mazkur ko‘p asrlik san‘at turining bugungi kun terminshunosligida yana bir nechta ta‘riflari mavjud:

- 1) zardo‘z kasbi;
- 2) zar ip bilan naqsh (kashta) tikish;
- 3) zar qo‘shib buyum tikish.

Tahlillar asosida keltirilgan misollardagi til birliklari ularni tashkil etuvchi elementlariga ko‘ra farq qilsa-da, ma‘no jihatdan yagona sinonim qatorni hosil qiladi.

«Zardo‘zlik»ning fransuz tiliga xos bo‘lgan varianti «broderie d’or» deb atalib, ushbu san‘at bilan shug‘ullanuvchi kasb egasi «un brodeur» deb nomlanadi. Mazkur terminlarni leksik xususiyatga ko‘ra tahlil etilganda, o‘zbek tilidagi «zardo‘zlik» atamasi (ot+so‘z yasovchi) yasama so‘z, uning fransuzcha ekvivalenti (ot+ot shaklida) qo‘shma so‘z bo‘lib kelganligini ko‘rish mumkin.

Fransuz va o‘zbek tillaridagi «zargarlik» va «zardo‘zlik» hamda «orfèvrerie» va «broderie d’or» terminlarini leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlariga ko‘ra qiyosiy va chog‘ishtirma tahlil etib, ikki noqardosh fransuz va o‘zbek tillariga xos terminlar shu til me‘yorlaridan kelib chiqish bilan birga, o‘z madaniyati va turmush tarzini ifodalashda ba‘zan mushtaraklik va ba‘zan o‘zigaxoslik kasb etganligini, o‘zbek va fransuz tilidagi atamalar shu til sathida o‘zining ko‘plab sinonim va paronimlariga egaligi bilan xarakterlanishi ko‘rish mumkin.

Jahonda milliy tarixi va madaniyatiga ega bo‘lgan qadim va hamisha navqiron Buxoro shahrining zargarlik va zardo‘zlik san‘atlari avlodlar osha yana ming yillar yashamog‘iga hech shubha yo‘qki, bugun ustoz-shogird analariga asoslangan zargarlik hamda Buxoro zardo‘zligi milliy hunarmandchilik asoslarini saqlab qolgan san‘at sifatida dunyoda alohida e‘tirof etilayotir.



3-rasm



4-rasm

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", – Toshkent, 2006. 136-137 b.
2. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi. YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi, – Toshkent, 2017. 202-204 b.
3. Fransuzcha-o'zbekcha lug'at. Dictionnaire français-ouzbek. Ibragimov X., ... – Toshkent, «Nihol», 2008. 376, 587 b.
4. Larousse Dictionnaire Maxipoche. La Tipografica Varese S.p.A., – Paris, 2010. – P. 973.
5. <https://neelam.fr/la-broderie-dor>
6. <https://uzbekistan.travel/uz/o/buxoro-tarixi/>
7. <https://society.uz/uz/news/detail/news/691>

MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY(BALXIY)NING “MASNAVIYI MA'NAVIY” ASARIDAGI HIKoyATLARDA ODOB-AXLOQ MASALALARI

Babayev Maxmud Tashpulatovich

Buxoro davlat universiteti

"Nemis filologiyasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mavlono Jaloliddin Rumi(Balxiy)ning “Masnaviyi Ma'naviy” asaridagi “Muhammad vandi valiy ut-tavfiqdin hamisha tavfiq va adab rioyati so'ralgani hamda beadablikning kasofatiyu zararlari bayoni” hikoyatida odob-axloq masalalarining aslyatda, forsiydan o'zbek tiliga O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol hamda forsiydan nemis tiliga Otto Ho'shle tarjimalarida berilishi haqida so'z yuritimiz.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Rumi, “Masnaviyi Ma'naviy”, odob, odobsizlik, Odam, Xudo, shayton, tavfiq, rizq, zakot.

Kirish. Jahon adabiyotining buyuk siymosi Mavlono Jaloliddin Rumiyning shoh asari- «Masnaviyi Ma'naviy» asari ma'nolari mohiyatiga ko'ra so'filylik qomusi, insoniyat tomonidan yaratilgan eng shoh asar namunasidir. 25 ming 632 (boshqa bir manbaga ko'ra 26 ming 840) baytli, olti daftardan iborat «Masnaviyi Ma'naviy» asari shoir va tarjimon Sulaymon Rahmon o'zining «Rumi va uning durdona asari «Ma'naviy Masnaviy»ning o'zbekcha tarjimasiga oid» maqolasida ta'kidlaganidek «Ma'naviy masnaviy» mohiyatan Qur'oni karimning o'ziga xos she'riy tafsiri va hadisi shariflarning sharhidan, talqinidan iboratdir. «Masnaviy»da Qur'on oyatlaridan 760 marta iqtibos olingan, 745 o'rinda 703 hadisdan foydalanilgan. Muxtasar aytgach, «Ma'naviy masnaviy»ning botiniy mohiyati shahodat kalimasining – ya'ni, «La ilaha illalloh»ning turli-tuman hikoyatlar, masallar, rivoyatlar, hikmatlar zamiriga singdirilgan zikrlari yig'indisidan iboratdir; uning bosh maqsadi – ana shu hikoyatlar, latifalar, masallar, rivoyatlar, hikmatlar vositasida tavidni – Allohning yagonaligini, sherigi yo'qligini zikr etish va tasdiqlashdir. Yanayam to'g'rirog'i, bu asar mavlono Rumiyning buyuk zot Allohning yakkayu yagona ekanligini tasdiqlab qilgan zikrlari, Uning Zoti, Sifoti va Quدراتi haqidagi fikrlari, Uning bani Odamga bergan ne'matlari uchun Unga astoydil shukrlarining badiiy ifodasidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqolada Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi Ma'naviy” asaridagi “Muhammad vandi valiy ut-tavfiqdin hamisha tavfiq va adab rioyati so'ralgani hamda beadablikning kasofatiyu zararlari bayoni” hikoyatida odob-axloq masalalarining aslyatda, forsiydan o'zbek tiliga O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol hamda forsiydan nemis tiliga Otto Ho'shle tarjimalarida yoritilishini tahlil qilishga urindik. Maqola yozish jarayonida Mavlono Jaloliddin Rumiyning R.Nikolson matni va boshqa nusxalar asosida tuzilgan, Dushanbe shahridagi Adib nashriyotida 2013 yilda chop etilgan tojikcha *Мавлоно Ҷалолуддин Муҳаммади Балхӣ Маснави маънаві: Дафтари аввал ва дувум/ Дафтари сеум ва чорум/ Дафтари панҷум ва шаашум* kitoblaridan, forsiydan o'zbek tiliga Jamol Kamol tarjimasidagi *Mavlono Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. Birinchi-oltinchi* kitoblaridan hamda olmon tarjimoni Otto Ho'shle tomonidan fors tilidan nemis tiliga qilingan tarjima asosida chop etilgan *Dschaläl ad-Din Rumi. Masnawi. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Erstes Band. Buch I-III. Aus dem persischen von Otto Höschle. Chalice Verlag, Xanten, 2020* va *Dschaläl ad-Din Rumi. Masnawi. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Zweites Band. Buch IV-VI. Aus dem persischen von Otto Höschle. Chalice Verlag, Xanten, 2021*, „Qur'oni Karim. Ma'nolar tarjiması.“ Shayx Muhammad Sodiқ Muhammad Yusuf, „Qur'oni karim ma'nolari tarjiması. Tarjimon Abdulaziz Mansur “ kitoblaridan hamda ko'plab internet saytlaridagi ma'lumotlardan foydalanildi.

D.Y. Yusupova	Soʻzning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi		
S.O. Mardonova	Oʻzbek tili elektron lugʻatlaridan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati		
N.A. Nazarova	Oʻzbek antroponimikasiga lingvistik yondashuv		
R.O. Bobokalonov	Onomastics in French and Uzbek medical language		
N.K. Abbasova, M.Abdualiyeve	National imagery in English proverbs and its reflection in Shakespearean tragedies		
Sh.D. Abdullayev, O.I. Abdullayev	Oʻzbek va Qoraqalpogʻ tillarida yangi ijtimoiy-siyosiy leksikaning lingvomadaniy tahlili		
M.Sh. Abdurahimova	Nabi Jaloliddin ijodida urush mavzusi		
O.I. Adizova	Bolalar oʻyinlari orqali adabiyotni oʻqitishda lingvomadaniy yondashuvni tatbiq etish		
R.Sh. Akhmedov	The phenomenon of ideological threats in modern society reflected in asimov's science fiction		
J.A.Akhrorova	Metonymy as a means of forming new meanings of a word		
I.I. Akramov	Bilingualism in the Bukhara region and its effects on the language system		
H.E. Alalamuratov	O zaимствованной юридической лексике в каракалпакском языке		
A.Y. Amandurdiyev	Turkiy xalq maqollarida harakat feʼllari presuppozitsiyasi		
F.A. Aminova	Badiiy asarlarda adabiy til va sheva xususiyatlari		
A.A. Amirkulov	Талабаларнинг хорижий тилларни ўрганиш қобилиятини ривожлантиришнинг методик тизими		
D.M. Anisbekova	Oʻzbek xalq dostonlarini oʻqitishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanish usullari		
M.I. Atajonova	Ogʻzaki nutqda intonatsiya va grammatikaning oʻzaro integratsiyasi ("Jane Eyre" asaridan olingan misollar asosida)		
Ш.У. Аюсбаева	Язык совершения нотариальных действий в Республике Узбекистан и сравнительный анализ с двухязычными нотариальными системами других стран		
L.B. Avliyoqulova	Soha lingvistikasini rivojlantirish davr talabi		
I.H. Axmatova	Buxoro janubiy tumanlari etnotoponimlari		
G.S. Hojiyeva	Dunyo sivilisatsiyasida Buxoroning oʻrni: zargarlik va zardoʻzlik (oʻzbek va fransuz terminlari chogʻishtirma tahlili misolida)		
M.T. Babayev	Mavlono Jaloliddin Rumi (Balxiy)ning "Masnaviyi ma'naviy" asaridagi hikoyatlarda odob-axloq masalalari		
Ш.Н. Бердиева	Влияние детективного жанра на мышление человеческого разума		
F.M. Boboxonova	Bolalar mediasi evolyutsiyasi		
R.X. Boymirzaeva	Oʻqituvchining huquqiy madaniyatini yuksaltirish – oʻqituvchining kasbiy rivojlanishi xususiyatlarining tarkibiy qismi sifatida		
Z.A. Bozorov	Maqollarda sogʻliqning ijtimoiy-ma'naviy qadriyat sifatida ifodalanishi		
G.Z. Bozorova	Oʻzbek tilida tibbiy terminlarning uslubiy xususiyatlari va ularning nutqiy voqelanishi		
O.A. Babayev	The evolution and significance of translation		
Г.П. Даниярова	Поэтика символов и метафор в поэзии И. Юсупова		
H.P. Eshonqulov, A.H. Hamidov	Alisher Navoiy gʻazallaridagi ayrim matniy tafovutlarga vazn talablari asosida yondashuv		
D.A. Farmanova	Ethnopoetics as the core of literary expression: its role and relevance in literary education		
M.T. Furkatova	A comparative morphosyntactic and cognitive analysis of the dative case in English and Uzbek: directionality, agency, and pragmatic functions		
G.M. Ibragimova	The role of somatisms in language and speech		
Sh.R. Gapparova, B.N. Gapparov	Innovatsion pedagogika va zamonaviy filologiyaning tutashgan jihatlari: nazariya va amaliyot		
M.U. Gulumov	"Go'ro'g'li" turkumi dostonlarining o'rganilishi haqida		
N.H. Halimova	Challenges of bilingualism and multilingualism in modern philology		